

SECONDARY INTERPRETATION OF THE WORLD THROUGH THE LANGUAGE

Akmal Gulamjanovich YULDASHEV

Doctor of Philology, Associate Professor

Head of the Department of Theoretical Aspects of the English Language 1

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

TIL VOSITASIDA OLAMNING IKKILAMCHI KATEGORIYALASHTIRILISHI

Akmal Gulamjanovich YULDASHEV

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Ingliz tili nazariy aspektlari 1 kafedrası mudiri

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ВТОРИЧНАЯ КАТЕГОРИЗАЦИЯ МИРА С ПОМОЩЬЮ ЯЗЫКА

Акмал Гуламжанович ЮЛДАШЕВ

Доктор филологических наук, доцент

Заведующий кафедрой теоретических аспектов английского языка 1

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан akmal1909@mail.ru

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Yuldashev A.G. Til vositasida olamning ikkilamchi kategoriyalashtirilishi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 1. — B. 43-55.

<https://doi.org/10.36078/1742363579>

Received: December 14, 2024

Accepted: February 17, 2025

Published: February 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. The formation of linguistic unit meanings is a complex cognitive process closely related to world perception, conceptualization, and categorization. This study explores the process of world categorization through language, its role in cognitive semantics and linguistics, as well as the distinctions between primary and secondary categorization. The article argues that primary categorization involves the classification of reality based on personal experience, while secondary categorization emerges as a result of new contexts and metaphorical transformations. The research analyzes the cognitive and linguistic mechanisms of secondary categorization, particularly the role of metaphor and metonymy. This process plays a crucial role in enriching the semantic system of a language and explaining meaning transfer mechanisms. The study also discusses the formation of polysemantic units, the emergence of phraseological expressions, and their relation to the principle of linguistic economy. The findings indicate that the process of perceiving the world through language is based on cognitive modeling principles, with semantic units reflecting the way human cognition processes and restructures information. Thus, secondary categorization is not only a linguistic phenomenon but also a reflection of the universality and specificity of human thinking. The article presents new theoretical approaches to understanding the principles of world categorization from the perspective of cognitive linguistics.

Keywords: category; primary categorization; secondary categorization; metaphor, metonymy; concept; conceptual domain.

Annotatsiya. Til birliklari ma'nolarining shakllanishi inson tafakkurining murakkab kognitiv jarayoni bo'lib, olamni idrok etish, konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tadqiqotda olamni til vositasida kategoriyalashtirish jarayoni, uning kognitiv semantika va tilshunoslikdagi roli, shuningdek, birlamchi va ikkilamchi kategoriyalashtirish o'rtasidagi farqlar o'rganiladi. Maqolada keltirilishicha, birlamchi kategoriyalashtirish jarayonida inson borliqni o'z tajribasi asosida konseptual tasniflaydi, ikkilamchi kategoriyalashtirish esa yangi kontekst va metaforik o'zgarishlar natijasida hosil bo'ladi. Tadqiqot davomida ikkilamchi kategoriyalashtirishning kognitiv va lingvistik mexanizmlari, xususan, metafora va metonimiyaning roli tahlil qilinadi. Ushbu jarayon tilning semantik boyligi va ma'no ko'chish mexanizmlarini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Polisemantik birliklarning shakllanishi, frazeologik birliklarning hosil bo'lishi va tildagi iqtisodiylik tamoyili bilan bog'liq jarayonlar ham maqolada yoritilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, til orqali olamni idrok qilish jarayoni kognitiv modellashirish tamoyillariga asoslanadi va inson tafakkuri tildagi semantik birliklar vositasida qayta ishlab chiqiladi. Shu bois, ikkilamchi kategoriyalashtirish faqat lingvistik fenomen bo'lib qolmay, balki inson tafakkurining universallik va o'ziga xoslik jihatlarini ham aks ettiradi. Maqola kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan olamni kategoriyalashtirish tamoyillariga oid yangi nazariy yondashuvlarni ham taklif qiladi.

Kalit so'zlar: kategoriya; birlamchi kategoriyalashtirish; ikkilamchi kategoriyalashtirish; metafora; metonimiya; konseptual maydon.

Аннотация. Формирование значений языковых единиц представляет собой сложный когнитивный процесс, тесно связанный с восприятием мира, концептуализацией и категоризацией. В статье рассматривается процесс категоризации мира посредством языка, его роль в когнитивной семантике и лингвистике, а также различия между первичной и вторичной категоризацией. В статье утверждается, что в процессе первичной категоризации человек классифицирует окружающую реальность на основе собственного опыта, в то время как вторичная категоризация возникает в результате новых контекстов и метафорических преобразований. В ходе исследования анализируются когнитивные и лингвистические механизмы вторичной категоризации, в частности роль метафоры и метонимии. Этот процесс играет важную роль в обогащении семантической системы языка и объяснении механизмов переноса значений. В статье также рассматривается формирование полисемантических единиц, возникновение фразеологических выражений и их связь с принципом языковой экономии. Результаты исследования показывают, что процесс восприятия мира через язык основан на принципах когнитивного моделирования, а семантические единицы языка представляют собой отражение процессов переработки информации в человеческом сознании. Таким образом, вторичная категоризация является не только лингвистическим феноменом, но и отражением универсальности и специфики человеческого мышления. В статье предложены новые теоретические подходы к изучению принципов категоризации мира с точки зрения когнитивной лингвистики.

Ключевые слова: категория; первичная категоризация; вторичная категоризация; метафора; метонимия; концепт; концептуальное поле.

Kirish

Til birliklarining kognitiv tadqiqida kategoriyalashtirish muammosi tayanch masalalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, turli fanlar mohiyatidan kelib chiqqan holda kategoriya tushunchasi har xil talqin etiladi. Ularning birinchisi — falsafiy kategoriyadir.

Falsafiy kategoriyalar voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim, alohida munosabat va aloqalarini ifodalash bilan birga, butun olam, inson hayoti va tafakkuriga xos xususiyatlar va munosabatlarni ham aks ettiradi [Uorf 1972: 12]. Shu bois, har bir aniq fan o'zi o'rganayotgan sohaning xususiyati va belgilarini ochishda falsafiy kategoriyalarga murojaat qiladi.

Asosiy qism

Falsafa tarixida *kategoriya* tushunchasini birinchi bo'lib Aristotel o'zining "Kategoriyalar" asarida ta'riflab bergan edi. U kategoriyaga obyektiv voqelikning umumlashgan in'ikosi sifatida qarab, *mohiyat, miqdor, sifat, munosabat, makon, zamon, vaziyat, holat, harakat, uqubat* kabi turlarga ajratgan [Aristotel 139: 84]. Anglashiladiki, falsafiy kategoriyalar voqelikdagi eng muhim tayanch munosabatlarni qamrab oladi va hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Tilshunoslikda *kategoriya* termini keng ma'noda til elementlarining muayyan bir umumiy o'xshashligiga ko'ra ajratilgan har qanday guruhini anglatadi [Большой энциклопедический словарь 1998: 215]. O'tgan asrda struktural tilshunoslikning yuzaga kelishi va rivojlanishi *kategoriya* muammosini o'rta tashladi va bu bo'yicha turli tadqiqotlar olib borildi. R. Marchand hozirgi zamon ingliz tilida so'z yasalishi kategoriyasiga tavsif berdi [Marchand 1969], B. L. Uorf turli tizimli tillarda grammatik kategoriyalar tamoyillarini tipologik aspektida tahlil qildi [Уорф 1972: 44–60]. M. A. Xallidey grammatik kategoriyalar nazariyasini ishlab chiqdi [Halliday 1972: 13–24]. V. V. Ioffe hind-yevropa tillarida jins kategoriyasining kelib chiqishi va rivojlanishi [Июффе 1973: 38] haqida ilmiy asoslarni keltirdi. D. Karimshoyev pomir tillarida jins kategoriyasining [Каримшоев 1973] qiyosiy tahlilini amalga oshirdi. J. B. Bo'ronov tipologik kategoriyalarni [Буранов 1979], A. T. Aksenov yangi hind tillarida jins kategoriyasini tadqiq qilgan bo'lsa, L. A. Timpko jins kategoriyasi ifodalanishining diaxronik jihatini o'rgandi [Тимпко 1985], M. I. Rasulova leksik kategoriyalashtirish muammosi [Расулова 2005] bo'yicha tadqiqot olib bordi.

O'zbek tilshunosligida ham kategoriya muammosi ko'tarilgan bo'lib, xususan, A. G'ulomov o'zbek tilida ko'plikning ifodalanishi masalasini [Гуломов 1944], Sh. Shahobiddinova morfologik kategoriyalarni *son kategoriyasi, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, subyektiv munosabat kategoriyasi, qiyoslash kategoriyasi, nisbat kategoriyasi, o'zgalovchi kategoriya* kabi turlarga ajratgan [Шахобиддинова 2001].

Kategoriya muammosi tahliliga oid ko'rsatilgan tadqiqotlar struktur tilshunoslik doirasida amalga oshirilgan edi. Til tadqiqiga antroposentrik yondashuv yuzaga kelgach, kategoriya tushunchasining mazmun-mohiyati

kengaydi va tilshunoslikka ushbu termin asosida hosil qilingan kategoriyalashtirish termini kirib keldi.

Insonning bilish faoliyati hamda kognitiv qobiliyatini tasvirlashda *kategoriyalashtirish* hamda *konseptuallashtirish* tushunchalari muhim o‘rin tutadi. Xususan, *kategoriyalashtirish* termini kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri bo‘lib, asosiy kognitiv jarayon tarzida talqin qilindi, ya‘ni olamni kategoriyalashtirish doimiy harakatda bo‘lgan jarayon ekanligi e‘tirof etildi. E. Rosch “Bilish va kategoriyalashtirish [Rosch 1978] asarida fokusli ranglar lisoniy emas, balki kognitiv maqomga ega ekanligini, ya‘ni ular fikrlash maydoniga tegishli ekanligini va kategoriyalashtirish jarayonida muhim rol o‘ynashini eksperimental ravishda isbotladi. Shuningdek, asarda kategoriyalashtirish asosiy kognitiv jarayonlardan biri ekanligini ilmiy jihatdan asosladi. Keyinchalik bu qarash Tambov lingvist-kognitologlar assotsiatsiyasi tomonidan rivojlantirildi. N. N. Boldirev muharrirligi ostida “Tilda olamning kategoriyalashtirilishi” nomli monografiyaning chop etilishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Kategoriyalashtirish ham falsafiy kategoriya kabi aynan bilish jarayoni hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan kategoriyalashtirish, bir tomondan, borliqdagi obyekt va hodisalarning nomlari haqidagi bilim va ushbu obyekt hamda hodisalarni aniq kategoriyalarga joylashtirish hamda ular nomlarini o‘zlashtirish jarayonidir. Demak, kategoriyalashtirish bu — olamni o‘xshash obyektlar yoki hodisalar kategoriyalariga bo‘lish, ya‘ni guruhlashdir. Shu bilan birga, kognitiv jarayon sifatida kategoriyalashtirish obyekt yoki hodisaning muayyan kategoriya bilan, shu jumladan, uning nomi bilan belgilanishiga aloqador bo‘lgan bilimlar tizimidir. Shunga ko‘ra, tildan foydalangan holda ma‘lumot almashish uni mavjud bo‘lgan bilimlar tizimi bilan taqqoslash, ma‘lum bir obyekt va hodisalarni muayyan kategoriyalar orqali aniqlashdan iboratdir. Mazkur “dinamik jarayon kategoriyadan farqli o‘laroq, statikada berilgan va bilish jarayoni sifatida kategoriyalashtirishning mohiyati” [Болдырев 2014: 37–38] hisoblanadi.

Jismoniy obyektlar va ularning parametrlarini tasniflash tabiatning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilishdan ko‘ra ko‘proq fikrlash jarayoni hisoblanadi. Tasniflashning bu kabi jarayoni kategorizatsiyalashtirish deb ataladi, uning natijalari esa kognitiv kategoriyalar [Ungerer 2006: 12] deb nomlanadi. Masalan, ranglarning kognitiv kategoriyalari: *qizil, sariq, ko‘k*.

Sh. Safarovning qayd etishicha, “Kategoriya — harakatdagi hodisa. Bu esa ma‘no hodisasi kognitiv talqinining ham doimiy rivojda bo‘lishini taqozo etadi. Kognitiv semantikaning asosiy vazifasi ma‘no tuzilishini aks ettiruvchi mental qoliplar, shakllarning voqeligini, ularning imkoniyatlarini aniqlash, to‘g‘rirog‘i, ko‘rsata olishdir” [Сафаров 2013: 239].

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan kategoriyalashtirish bazaviy, subordinat va superordinat darajalarga bo‘linadi. Bazaviy daraja egallangan bilimning asosiy qismini tashkil qiladigan daraja hisoblanadi. Bu daraja empirik xarakterga ega bo‘lib, uning natijalarini har kim shaxsiy tajribasida sinab ko‘rishi mumkin. Odatda, bazaviy darajadagi

kategoriyalarga xos xususiyatlar sifatida deraza, *eshik*, *darvoza* va eng kam miqdorda — undan yuqori darajadagi kategoriyalarga xos xususiyatlar *ro'zg'or buyumlari*, uy jihozlari nomi keltiriladi. Maxsus bilimlarga ega bo'lmagan inson uchun quyi darajadagi kategoriyalar (*manti qasqon*, *shashlik qo'ra*, *yumshoq mebel*, *hovli mebeli*) to'g'risidagi ma'lumotlar bazaviy darajaga nisbatan deyarli oshmaydi.

Subordinat darajada kategoriyalashtirish obyektlarning aniq xususiyatlarini yetkazuvchi konseptlar va tavsiflar asosida amalga oshiriladi: *xontaxta* — bezatilgan dasturxon, o'tirib ovqatlanish uchun xizmat qiladigan, oyoqlari kalta yog'och stol (tarkibiy qismlarining o'ziga xos shakli tufayli maxsus funksiyani bajaradi).

Superordinat kategoriya kabi yanada yuqori darajadagi kategoriyalar obyektlarning butun sinflariga xos bo'lgan doimiy xususiyatlarni umumlashtiruvchi mantiqiy konseptlar asosida quriladi: universitet, *avtomobil*, *o'simlik*, *rang*, shakl va boshqalar.

Tegishli obyektlarni superordinat va subordinat darajalar kategoriyalariga kiritish uchun maxsus bilimlarni, ya'ni ularning boshqa obyektlar bilan umumiy va farqlovchi xususiyatlarini bilish zarur. Masalan, har qanday katta yoshli kishi ham *iPhone* telefoni *Samsung Galaxy* telefonidan yoki oddiy televizor *smart* televizordan nimasi bilan farq qilishini (subordinat daraja kategoriyasi) va artefakt nima ekanligini yoki hattoki yuqori texnologiyalar *hi-tech* deb atalishini (superordinat daraja kategoriyalari) tushunib yetmaydi. Insonning bazaviy darajaga yo'naltirilgan *geshtalt* bilan yaxlit idrok qilishdek tabiiy qobiliyati quyi yoki yuqori darajalarda oson farqlash yoxud umumlashtirishga imkon bermaydi.

Kategoriyalashtirish obyektlarning konseptual birlashishi, ya'ni konsept asosida birikishi hisoblanadi. "Lisoniy kategoriyalar lisoniy obyektlar, lisoniy birliklarning konseptual birlashmasidir. So'zlarning ma'lum guruhlar yoki sinflarga birikishi ularning leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra sodir bo'ladi. Ularning leksik ma'nosiga ko'ra birlashuvi leksik kategoriyalashtirish" [Болдырев 2014: 155] deb ataladi.

Leksik ma'noda til haqidagi bilimlar emas, balki olamdagi predmet va hodisalar hamda ularning xususiyatlari haqidagi bilimlar aks etadi, leksik kategoriyalashtirish esa predmetlar va hodisalar tizimini, ya'ni tabiiy obyektlarning kategoriyalarini ifodalaydi. Shunga ko'ra, har xil turdagi leksik guruhlar aslida lisoniy kategoriyalar hisoblanadi. Ular tilning tashkil etilishi va faoliyati qonunlari, shuningdek, tabiiy kategoriyalar haqidagi bilimlarni yetkazadi.

Boshqacha qilib aytganda, ular olam kategoriyalari elementlari nomlarini birlashtirgan holda, analogik kategoriyalarni (atrof-muhitga nisbatan) namoyon qiladi. Shunga ko'ra, ular o'z tabiatiga ko'ra analogik tuzilishga ega hisoblanadi. Masalan, tajriba sifatida o'quv xonasi doskasiga hayvon, o'simlik, maktab kabi umumiy konseptlar yozib chiqilsa, ularning kognitiv maydonidan o'rin olgan sher, bo'ri, tulki, xurmo, olma, o'sma, o'qituvchi, o'quvchi, dars kabilarni kognitiv maydonlarga ajratish topshirig'i berilsa, ularning kognitiv kompetensiyasi yorqin namoyon bo'ladi. Anglashiladiki, aynan leksik kategoriyalashtirish

tufayli til o'zining muhim akkumulyativ funksiyalaridan biri — bilim olish, saqlash va yetkazishni, ya'ni kognitiv funksiyasini amalga oshiradi.

Bilimlarning kategorial formatini konseptual komplekslar deb hisoblash ham mumkin, chunki ular turli bilim tuzilmalarini birlashtiradi va shuning uchun uning maxsus formatini ifodalaydi. Shakllanish uslubiga ko'ra, har qanday kategoriya – bu obyektlarning konseptual birlashmasi, ya'ni umumiy tushunchaga asoslangan obyektlar birlashmasidir. Bilim formati sifatida kategoriyalar – bu obyektlar sinfini anglatadi. Ayni vaqtda ular obyektlarni bitta kategoriyaga birlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan umumiy tushunchani bilishni shaxs tomonidan o'rnatilgan obyektlarning konseptual o'xshashligini uni boshqa bilim formatlaridan ajratib turadigan universal xususiyatlarni ham bildiradi.

Kategorial bilim formatining yana bir o'ziga xos xususiyati inson ongida muayyan tushunchalar ko'rinishida shakllanadigan belgilar va xususiyatlar faqat bitta aniq obyekt bilan chegaralanib qolmaydi, balki obyektlarning ayrim sinflariga nisbatan qo'llaniladi [Болдырев 2009: 28–29]. Misollarni qiyoslaymiz: “*Kitoblar olami*”, “*Gilamlar olami*”da *do'kon* so'zini ifodalovchi bitta ham leksema mavjud emas, shuningdek, borliqda faqatgina kitoblardan yoki gilamlardan tashkil topgan olamni tasavvur qilib ham bo'lmaydi.

Obyektlarni guruhlashning u yoki bu konseptual asosini tanlash, avvalo, ularni birlashtirishning tegishli tamoyillari va mexanizmlarini tanlashni belgilaydi. Tabiiy obyektlar kategoriyalarni birlashtirishning asosiy mexanizmlari ularni prototip bilan taqqoslash va o'xshash (prototipik) tavsiflarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Kategoriya bilim formati sifatida turli bilim tuzilmalarini birlashtira oladi: muayyan obyektlarni guruhga ajratishning umumiy konseptual asoslari to'g'risidagi bilimlar, guruhlanayotgan obyektlar haqidagi bilimlar ularning tamoyillari va mexanizmlari haqidagi bilimlar. Ularning birlashishiga integratsiya tipdagi ma'lum bir konseptual tuzilma sifatida qarash mumkin.

Lisoniy kategoriyalar, shuningdek, olamning bir qismi sifatida til haqidagi, ularning insonlar tomonidan qayta idrok etish va interpretatsiya qilish usullari haqidagi bilimlarni tashkil qilishda va ulardan operativ foydalanishda alohida rol o'ynaydigan maxsus bilim formatlari xarakteriga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, lisoniy kategoriyalar olamni tilda anglashning lisoniy ong shakllarini va lisoniy bilimlarni ifodalaydi.

Lisoniy bilimlar shaxsning umumiy konseptual tizimining ajralmas qismi bo'lib, boshqa bilim turlari bilan bir xil qonuniyatlar asosida shakllanadi. Inson olgan har qanday bilim singari bu atrof-muhit va tilni uning ajralmas qismi sifatida konseptuallashtirish va kategoriyallashtirish natijasidir. Xususan, lisoniy bilimlar — til tizimi va tuzilishi, uning asosiy birliklari va kategoriyalari, tildan foydalangan holda ma'nolarni shakllantirish, uzatish tamoyillari va mexanizmlari, uning ishlashi haqidagi bilish va tushunish natijasidir. Mazkur ta'rifdan kelib chiqqan holda, lisoniy bilimlar mazmunan juda xilma-xil. Ularning xilma-xilligi, lisoniy kategoriyalarda ifodalanadigan kamida uchta turini farqlashni taqozo etadi.

Leksik kategoriya olamning bir qismi sifatida tilni, ma'lumotlarni qayta ishlash va interpretatsiya qilish yo'llari haqidagi bilimlarni tashkil

qilishda va ulardan operativ foydalanishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan maxsus bilim formatlariga ega bo'ladi. Tilda olam haqidagi bilimlarning voqelanishi leksik kategoriyalar tizimi — ularning implitsit ma'nosi yordamida amalga oshiriladi.

“Olam haqida so'z yuritish va uni tasvirlash uchun, — deb eslatadi Y. S. Kubryakova, — birinchi navbatda, tasvirlangan nom uchun shunday tavsif vositalariga ega bo'lish zarur” [Кубрякова 1997: 50]. Bular sirasiga tilning nominativ vositalari — iboralar, shu jumladan, frazeologik birliklar kiradi. Ularning bilim tuzilmalari bilan aloqasi tilning kognitiv funksiyasidan kelib chiqadi va ularning ma'nosida aks etadi.

Leksik kategoriyalar olam ontologiyasini va inson tomonidan uni bilish natijalarini aks ettiradi: aniq predmetlar, hodisalar, ularning xususiyatlari va kategoriyalari haqidagi bilimlar tabiiy obyektlarning kategoriyalanishi sanaladi. Shuning uchun ular tabiiy obyektlar kategoriyalariga nisbatan o'xshash kategoriyalar sifatida tabiatda mantiqiy tuzilishga ega bo'lib, ularning shakllanishi mantiqiy tamoyilga asoslanadi. Ushbu tamoyilga muvofiq, kategoriya markazi eng umumiy ma'noga ega bo'lgan so'zga aylanadi, u bir vaqtning o'zida ham kategoriyaning nomi, uning o'zgarishligi va berilgan kategoriyaning boshqa elementlariga nisbatan asosiy aniqlovchisi sifatida ma'lum bir ma'noga ega so'z variantlari vazifasini bajaradi [Болдырев 2009: 29–31]. Boshqacha qilib aytganda, lisoniy kategoriyalar olamni til vositasida anglashning muayyan shakllarini, ya'ni lisoniy ong shakllarini va maxsus turdagi bilim turini — lisoniy bilimlarni ifodalaydi.

Ikkilamchi kategoriyaning xususiyatlarini D. Layonz [Лайонз 1978] birlamchi kategoriyaning hosilasi sifatida ko'rib chiqqan. Uning fikricha, ikkilamchi kategoriyalarga funksional kategoriyalarni ta'minlaydigan qayta kategoriyalash va polikategoriya kabi hodisalar qo'shiladi va bu raqamlar, turlar, holatlar va boshqalar kabi kategoriyalarda namoyon bo'ladi. Demak, qayta kategoriyalash deganda u til birliklari tizimli kategorik ma'nosining o'zgarishi natijasida qayta ko'rib chiqish jarayonini tushungan va qayta kategoriyalashtirish lisoniy birlikning boshqa kategoriyadagi prototipik xususiyatlarini ochib beradi, deb taxmin qilgan. L. V. Babina fikriga ko'ra, “Polikategoriya turli kategoriyalarning konseptual xususiyatlarini bir vaqtda amalga oshirishni nazarda tutadi, bu esa bir nechta kategorial ma'nolarning sinkretik tarzda umumlashuviga olib keladi” [Бабина 2003: 12–13].

Har xil kategoriyalarni tashkil etishning o'xshashligi, xususan, obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning kichik kategoriyalarga bo'linishi, turli subyektlar konsept va kategoriya o'rtasida mazmunli aloqalarni o'rnatishga imkon beradi. Ushbu farqlar tipologiyasiga shakl, hajm, tashqi ko'rinish, vazifalar kiradi. Masalan, insonlar, hayvonlar, qushlar va baliqlar, tashqi ko'rinishi, hajmi, xulq-atvori, qobiliyatlari, vazifalari bilan farq qiladi. Bu leksik kategoriyadagi elementlarni boshqa predmet sohasidagi obyektlarni belgilash orqali ularni qiyosiy va baholovchi interpretatsiya qilish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, leksik kategoriyaning tuzilishi ma'lum bir konseptual maydon: qo'chqor, ho'kiz, buqa, sigir haqidagi bilimlarni

ikkilamchi interpretatsiya qilishning kognitiv sxemasi vazifasini bajargan holda botir, qo'pol, semiz ma'nolarini yuzaga keltiradi.

Interpretatsiyaning kognitiv sxemasi deganda leksik kategoriyalar, ularning tuzilish tamoyillari va obyektlarning xilma-xilligi, farqlari va o'xshashligiga asoslanib, olam haqidagi bilimlarni ikkilamchi interpretatsiya qilish tushuniladi. Bu holda obyektlarning har qanday guruhida o'xshash va o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'ladi. Bu o'xshashlikni konseptual-mavzuiy sohalar tuzilishida ham, leksik kategoriyalar tarkibida ham kuzatish mumkin. Shunga ko'ra, bitta konseptual-mavzuiy maydonni ifodalovchi leksik kategoriya boshqa soha yoki kategoriyadagi elementlarni interpretatsiya qilish uchun ishlatilishi mumkin: xo'roz kabi qichqirmoq, bulbul kabi sayramoq, eshak kabi hangramoq va boshqalar.

Kategoriyalashtirish nafaqat kognitiv obyektни ma'lum bir sinfga (moddiy obyektlarning nomlari, hissiy va idrok etuvchi tasvirlar, ijtimoiy stereotiplar va boshqalar) mansubligini belgilashda, balki kategoriyalarni tahlil qilingan hodisalarda aniqlangan o'xshash hodisalarni shakllantirish va tanlashning murakkab jarayoni sifatida tushuniladi.

V. V. Ivaniskiyning yozishicha, kognitiv jarayonlarni birlamchi va ikkilamchi konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishga ajratish mumkin. Agar real olamning birlamchi belgilari va xususiyatlarini aks ettiruvchi asosiy jarayonlar til olamiga yo'naltirilgan bo'lsa, u holda ma'lum bir tilning belgilari va xususiyatlarini qamrab oluvchi ikkinchi darajali jarayonlar ham til olamiga yo'naltiriladi [Иваницкий 2000: 96-98].

Olamni bilish, konseptuallashtirish va kategoriyalarga ajratishning asosiy vositalaridan biri til hisoblanadi. Anglashiladiki, bir tomondan, olam haqidagi ma'lumotlarning katta qismi til, darsliklar, badiiy adabiyot va ilmiy adabiyotlar, ma'lumotnomalar, lisoniy aloqa va til birliklarining ma'nolarini o'rganish orqali olinadi. Boshqa tomondan, til bizga boshqa manbalar orqali kelgan barcha ma'lumotlarni birlashtirishga va umumlashtirishga yordam beradi. Ko'rish, eshitish, ushlar, his qilish, ta'm bilish tuyg'ulari orqali olamni idrok etish natijasida erishilgan bilimlar, shuningdek, obyektlar bilan faoliyat turlari va mental operatsiyalar natijasida olingan umumiy bilimlar, mantiqiy natijalarga erishishga yordam beradi. Ko'rinadiki, til barcha konseptlar mazmuniga, ular qanday shakllanishidan qat'i nazar, kirishni ta'minlaydi, hissiy tajriba, obyektiv, ta'limiy, mental faoliyat inson ongida konseptlarni shakllantirish usullaridan biri hisoblanadi. Barcha bilimlar inson xotirasida kategoriya shaklida saqlanadi, shuning uchun ong mahsuli hisoblanadi. Kategoriya haqidagi u yoki bu g'oyalar tafakkurga muayyan nuqtayi nazardan yondashishgina emas, balki olamni ma'lum darajada anglashdan dalolat beradi.

Har qanday kategoriyaning shakllanishi ma'lum bir konseptga asoslanadi hamda konseptlarning xilma-xilligi turli kategoriyalar mavjudligini belgilaydi. Kategoriya — obyektlarning konseptual birlashishi yoki umumiy konseptual asosda obyektlar birlashmasi bo'lib, bilimlarning birlamchi (empirik) kategorial konfiguratsiyasi obyektiv olam tuzilishini idrok etishning kognitiv ehtiyojidan kelib chiqadi. U olam haqida umumiy tizimli g'oyalarni shakllantirishdan iborat. Bu olam

haqidagi idrok etiladigan ma'lumotlarni qayta idrok qilish natijasidagina mumkin bo'ladi va ayni vaqtda uning bevosita aksi emas, balki o'ziga xos ontologik xususiyatlarga nisbatan uning subyektiv tanlangan in'ikosini ifodalaydi. Birlamchi kategoriyalarga ajratish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklangan va sezgi bilan qabul qilinadigan obyektlar va ularning individual xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bilimning empirik darajadagi konfiguratsiyasi muayyan bir obyekt haqida olingan ma'lumotni birlamchi konseptualashtirish jarayonida shakllangan o'xshash mavzular haqidagi ma'lumot bilan solishtirishdan iborat. Empirik bilish subyektining kategoriyalashtiruvchi faoliyat uchun yetarli miqdordagi bilim ongda tanlab olingan obyektning seziladigan xususiyatlarini bilishdir. Ular, odatda, lug'at ta'riflarida o'z aksini topgan bo'lib, ma'lum bir obyektни ma'lum bir kategoriyaga ajratish imkonini beradigan asosiy konseptual xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

O. V. Magirovskayaning fikricha, mavzuiy guruhlarining tuzilishi nolisoniylikka asoslangan bo'lib, ularning shakllanishi assosiativ tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi [Магировская 2012: 130–132]. Ularning asosi konseptual sohaning umumiyliги bo'lib, uning doirasida reallik obyektlarini bilish subyektining ongida guruhlanishi mumkin.

Bilimlarni ikkilamchi kategoriyalashtirish murakkab, vositachi va ko'p o'lchovli xarakterga ega. Empirik bilimlar va tizimli lisoniy bilimlarni o'z ichiga oladigan bazaviy bilimlar tizimiga asoslanib, u ma'lum bir lingvokulturologik jamoaning individual vakili sifatida bilish mavzusining o'ziga xos g'oyalari, qarashlari, dunyoqarashi, tajribasi, stereotiplariga qaratilgan. Bilimning ikkilamchi kategoriyalashtirilishi olamning subyektiv tasavvurini namoyon etadi. Bilimlarning ikkilamchi kategoriyalashtirilishi har doim tanlab olinishining boisi, har bir konseptual holat va uning ishtirokchilari individual tushunishining ma'lum bir nuqtasiga e'tibor qaratiladi.

Birlamchi kategoriyalashtirishdan farqli o'laroq, ikkilamchi kategoriyalashtirish baholovchi va hissiy jihatdan emotsionaldir. Uning maqsadi olamni bilish inson ongida mavjud bo'lgan bilimni ifodalashdan iborat. Kategoriyalashtirishning bu turi bilish subyektining olamni har doim obyektiv bo'lmagan o'ziga xos xususiyatlar va munosabatlarda, inson xohlagan yoki ko'rishi kerak bo'lgan narsani ko'rish istagini aks ettiradi. Shunday qilib, u olamni kognitiv-lisoniy modellashtirishning eng yuqori darajasini ifodalaydi.

Bilimni ikkilamchi kategoriyalashtirishning o'ziga xosligi konkretlashtiruvchi tabiati, assosiativligi va integratsiyasida bo'lgan ma'noni shakllantirishning kognitiv mexanizmlari faollashuvi bilan belgilanadi. Ushbu jarayonda kognitiv mexanizmlardan konseptual metafora va konseptual metonimiya yetakchilik qiladi hamda tafakkurga oid mexanizmlar sifatida talqin qilinadi. Kognitiv mexanizmlar bilim subyektining tafakkurida assosiativ jihatdan o'xshash yoki ularga yondosh bo'lgan ba'zi kategoriyalar, ularning belgilari va xususiyatlari haqidagi bilimlarni boshqalariga o'tkazishga imkon beradi. Dastlabki darajadagi umumlashtirish bilan tavsiflanadigan bilimlarning boshlang'ich va birlamchi kategoriyalashtirish mexanizmlaridan farqli o'laroq, ular o'ziga xos emotsionallikni amalga oshirish uchun yaxlit va shuning uchun

murakkab konseptlarning individual tomonlari va xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Natijada, inson til tizimiga xos bo'lgan umumlashtirish va mavhumlikka ega bo'lib, nutq faoliyati uchun xarakterli va zarur bo'lgan yagona va emotsional aniqlikdan iborat bo'ladi.

Kognitiv faoliyatni tasniflash ko'rsatkichi ko'chimga uchrashi yoki o'zaro bog'liqlik uchun, lisoniy birliklardan foydalanish konteksti bilan semantik o'zaro ta'sirning bir qancha holatlariga xosdir. Bu, avvalo, ularning metaforik va metonimik tarzda qo'llanilishi bilan belgilanadi. "Mantiqan, konseptuallashtirish kategoriyalashtirishdan oldin bo'ladi deb o'ylash kerak, aksincha emas, ya'ni konseptlar mavjud bo'lgani uchun kategoriyalar mavjud, kategoriyalar mavjud bo'lgani uchun konseptlar mavjud emas" [Шафиков 2007: 8].

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, ikkilamchi kategoriyalashtirish inson olamni idrok etish barobarida obyekt va hodisalarni birlamchi kategoriyalashtiradi, aynan ushbu kategoriyaga asoslanib tilda ma'no ko'chimga uchragan til birliklarini ikkilamchi kategoriyalashtiradi.

Xulosa

Olamni konseptuallashtirishda inson borliqdagi voqea va hodisalarni o'rganadi, ularning muayyan xususiyatlari haqidagi bilimlarni tafakkurida mujassamlashtiradi. Bunday kognitiv jarayon olamni birlamchi konseptuallashtirish bo'lib, borliq haqidagi umumiy bilimlar konsept sifatida inson tafakkurida kodlashadi. Aynan mazkur konseptlar turli til birliklari orqali o'z ifodasiga ega bo'ladi hamda tadqiqot obyektiga aylanadi. Olamni ikkilamchi konseptuallashtirish esa birlamchi konseptuallashtirish asosida amalga oshiriladi. Bunda inson tafakkurida allaqachon kodlashgan, ya'ni konseptual tizimidan o'rin olgan mavzuiy konseptlarning hosila ma'no kasb etgan holda bir konseptual maydondan ikkinchi konseptual maydonga o'tishi nazarda tutiladi.

Kategoriyalashtirishning asosiy vazifasi olam obyektlarining konseptual tizimlashtirishini nazarda tutadi. Inson olamni bilish jarayonida undagi narsa va hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir guruhlariga ajratadi va ushbu jarayon olamning birlamchi kategoriyalashtirishi bilan xarakterlanadi. Olamni ikkilamchi kategoriyalashtirish esa inson tafakkurida muayyan kategoriyaga kiritilgan borliq obyektlarining yangi bilimlar evaziga qayta idrok qilingan voqea va hodisalarning bir kategoriyadan ikkinchi kategoriyaga o'tishini nazarda tutadi. Bunday holatda kognitiv mexanizmlar bilim subyektlarining tafakkurida assotsiativ ma'nolarning o'xshash yoki yondosh bo'lgan ayrim kategoriyalar, ularning belgilari va xususiyatlari haqidagi bilimlarni o'zga kategoriyalarga o'tkazishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Аристотель. Категории. С прил. «Введения» Порфирия к «Категориям» Аристотеля (Categories. From the appendix of Porphyry's "Introduction" to Aristotle's "Categories") / Пер. А.В. Кубицкого. — М.: ГСЭИ, 1939. — 84 с.

- Бабина Л.В. Когнитивные основы вторичных явлений в языке и речи. (Cognitive foundations of secondary phenomena in language and speech). — Тамбов-Москва: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2003. — 264 с.
- Болдырев Н.Н. Концептуальная основа языка (Conceptual basis of language) // Когнитивные исследования языка. — 2009. — Вып. IV. — С. 25–78.
- Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику. (Cognitive Semantics. Introduction to Cognitive Linguistics). — Тамбов: ФГБОУ ВПО Тамбовский государственный университет им. Г.Р.Державина, 2014. — 236 с.
- Большой энциклопедический словарь. Языкознание. 2-е репринтное издание Лингвистического энциклопедического словаря. (The Encyclopedic Dictionary. Linguistics. 2nd reprint edition of the Linguistic Encyclopedic Dictionary) 1990 г. — М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. — 687 с.
- Буранов Ж. Типологические категории и сравнительное изучение языков: (Typological categories and comparative study of languages) Автореф дисс... д-ра филол. наук. — М., 1979. — 48 с.
- Гуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. (The category of plurality in the Uzbek Language). — Т., 1944. — 56 б.
- Иваницкий В.В. О категориях языка денотативного и сигнификативного типа (On the categories of language of denotative and significative types) // Вестн. НовГУ. Сер. Гуманитарные науки: история, литературоведение, языкознание. — 2000. — Вып.15. — С. 96–98.
- Иоффе В.В. Происхождение и развитие рода в праиндоевропейском языке: (Origin and development of gender in the Proto-Indo-European language) Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Ростов-на-Дону, 1973. — 38 с.
- Каримшоев Д. Категория рода в памирских языках (срав. анализ): (Gender category in the Pamir languages (comparative analysis) Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. — М., 1973. — 34 с.
- Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. (Dictionary of cognitive terms) — М.: Филологический ф-т МГУ им. М.В.Ломоносова, 1997. — 245 с.
- Лайонз Д. Введение в теоретическую лингвистику. (Introduction to the theoretical linguistics) — М.: Прогресс, 1978. — 540 с.
- Магировская О.В. Категориальная конфигурация знаний (Categorical configuration of knowledge) // Когнитивные исследования языка. — 2012. — Вып. X. — С. 121–151.
- Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. (Fundamentals of Lexical Categorization in Linguistics) — Т.: Фан, 2005. — 268 с.
- Сафаров Ш. Семантика. (Semantics) — Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2013. — 344 б.
- Тимпко Л.А. Род как историческая категория (Gender as a historical category) — М.: Изд. МГУ, 1985. — 46 с.

- Уорф Б.Л. Грамматические категории (Grammatical categories) // Принципы типологического анализа языков различного строя (Сборник статей). — М.: Наука, 1972. — С. 44–60. — 282 с.
- Фалсафа қомусий луғат. (Encyclopedic dictionary of philosophy) — Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, 2004. — 491 б.
- Шафиков С.Г. Категории и концепты в лингвистике (Categories and concepts in linguistics) // Вопросы языкознания. — 2007. — № 2. — С. 3–17.
- Шаҳобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: (The dialectic of universality and particularity and its reflection in the morphology of the Uzbek language) Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. — Т., 2001. — 50 б.
- Rosch E., Lloyd B. (eds.) Cognition and Categorization. — New York, Hillsdale, 1978. — 328 p.
- Halliday M.A.K. Categories of the theory of Grammar // Reading in Modern Linguistics. An anthology by Malmberg. — 1972. — P. 13–24.
- Marchand H. The Categories and Types of Present-day English Word-formation. — Alabama: University of Alabama Press, 1969. — 545 p.
- Ungerer, F., Schmid, H.-J. An Introduction to Cognitive Linguistics. Second edition. — Great Britain: Pearson Education Limited, 2006. — 396 p.

References

- Aristotel'. (1939). *Kategorii. S pril. «Vvedeniya» Porfiriya k «Kategoriyam» Aristotelya* (Categories. From the appendix of Porphyry's "Introduction" to Aristotle's "Categories"), М.: GSEI, 84 p.
- Babina, L.V. (2003). *Kognitivnye osnovy vtorichnykh yavlenii v yazyke i rechi* (Cognitive foundations of secondary phenomena in language and speech), Tambov-Moskva: Izd-vo TGU im. G.R. Derzhavina, 264 p.
- Boldyrev, N.N. (2009). *Kognitivnye issledovaniya yazyka*, issue IV, pp. 25–78.
- Boldyrev, N.N. (2014). *Kognitivnaya semantika. Vvedenie v kognitivnuyu lingvistiku* (Cognitive Semantics. Introduction to Cognitive Linguistics), Tambov: FGBOU VPO Tambovskii gosudarstvennyi universitet im. G.R.Derzhavina, 236 p.
- Bol'shoi entsiklopedicheskii slovar'. Yazykoznanie. 2-e reprintnoe izdanie Lingvisticheskogo entsiklopedicheskogo slovarya* (The Encyclopedic Dictionary. Linguistics. 2nd reprint edition of the Linguistic Encyclopedic Dictionary) 1990 g. (1998). Moscow: Bol'shaya Rossiiskaya entsiklopediya, 687 p.
- Buranov, Zh. (1979). *Tipologicheskie kategorii i sravnitel'noe izucheniye yazykov* (Typological categories and comparative study of languages): Extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 48 p.
- Gulomov, A. (1944). *Uzbek tilida kuplik kategoriyasi* (The category of plurality in the Uzbek Language), Tashkent, 56 p.

- Ivanitskii, V.V. (2000). *Vestn. NovGU. Ser. Gumanitarnye nauki: istoriya, literaturovedenie, yazykoznanie*, issue 15, pp. 96–98.
- Ioffe, V.V. (1973). *Proiskhozhdenie i razvitie roda v praindoevropeiskom yazyke* (Origin and development of gender in the Proto-Indo-European language): Extended abstract of candidate's thesis, Rostov-na-Donu, 38 p.
- Karimshoev, D. (1973). *Kategoriya roda v pamirskikh yazykakh (srav. analiz)* (Gender category in the Pamir languages (comparative analysis): Extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 1973, 34 p.
- Kubryakova, E.S., Dem'yankov, V.Z., Pankrats, Yu.G., Luzina, L.G. (1997). *Kratkii slovar' kognitivnykh terminov* (Dictionary of cognitive terms), Moscow: Filologicheskii f-t MGU im. M.V.Lomonosova, 245 p.
- Laionz, D. (1978). *Vvedenie v teoreticheskuyu lingvistiku* (Introduction to the theoretical linguistics), Moscow: Progress, 540 p.
- Magirovskaya, O.V. (2012). *Kognitivnye issledovaniya yazyka*, issue X, pp. 121–151.
- Rasulova, M.I. (2005). *Osnovy leksicheskoi kategorizatsii v lingvistike* (Fundamentals of Lexical Categorization in Linguistics), Tashkent: Fan, 268 p.
- Safarov, Sh. (2013). *Semantika* (Semantics), Tashkent: Uzbekiston Millii entsiklopediyasi, 344 p.
- Timpko, L.A. (1985). *Rod kak istoricheskaya kategoriya* (Gender as a historical category), Moscow: Izd. MGU, 46 p.
- Uorf, B.L. (1972). *Printsipy tipologicheskogo analiza yazykov razlichnogo stroya (Sbornik statei)* (Principles of Typological Analysis of Languages with Different Structures (Collection of Articles)), Moscow: Nauka, 282 p.
- Falsafa komusii lugat* (Encyclopedic dictionary of philosophy), (2004), Tashkent: "Uzbekiston failasuflari millii zhamiyati nashrieti", 491 p.
- Shafikov, S.G. (2007). *Voprosy yazykoznaniya*, No. 2, pp. 3–17.
- Shakhobiddinova, Sh. (2001). *Umumiilik va khususiilik dialektikasi xamda uning yzbek tili morfologiyasida aks etishi* (The dialectic of universality and particularity and its reflection in the morphology of the Uzbek language): Extended abstract of Doctor's thesis, Tashkent, 50 p.
- Rosch, E., Lloyd, B. (eds.) (1978). *Cognition and Categorization*, New York, Hillsdale, 328 p.
- Halliday, M.A.K. (1972). *Reading in Modern Linguistics. An anthology by Malmberg*, pp. 13–24.
- Marchand, H. (1969). *The Categories and Types of Present-day English Word-formation*, Alabama: University of Alabama Press, 545 p.
- Ungerer, F., Schmid, H.-J. (2006). *An Introduction to Cognitive Linguistics. Second edition*, Great Britain: Pearson Education Limited, 396 p.